ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2024/ № 12

Termiz – 2024

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.12.2024
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz
Rasmiy sayt:
www.philologicalresearch.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, *filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)*
Shoxista Maxmaraimova, *filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)*
O‘ral Xoliyorov, *f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)*
Olmos Ulviy Binnatova, *f.f.d., professor (Ozarbayjon)*
Karl Rayxl, *f.f.d., professor (Germaniya)*
Vali Savash yelok, *f.f.d., professor (Turkiya)*
Dorota Silviya, *f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)*
Muslihiddin Muhiddinov, *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Ibodulla Mirzayev, *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Abdi Mamatov *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Suyun Karimov *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Muhammadxon Hakimov, *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Nafas Shodmonov *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Dilmurod Quronov, *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Murodqosim Abdiyev, *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Baxtiyor Mengliyev, *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Normat Yo‘ldoshev, *f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)*
Abdulla Xudoyqulov, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Bobonazar Murtazayev, *f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)*
Asqar Eshmo‘minov, *f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)*
Obidjon Shofiyev, *f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)*
Zafar Umurqulov, *f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)*
Nurali Amonturdiyev, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Hakim Ahmedov, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Ahad Shukurov, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Eshnazar Jabborov, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Abdumurod Arslonov, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Sirojiddin Turdimurodov, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Umida Raximova, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Gulchehra Begmatova, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Nargis Qurbonazarova, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Muyassar Xolova, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Shoira Omonturdiyeva, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Sherzod Turdiqulov, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Zaynura Qodirova, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Humayun Nadim Muhammad, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Dilrabo Ergasheva, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.12.2024
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100
Цена договорная
Заказ: 155
Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул.
Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
www.philologicalresearch.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, *доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)*
Шохиста Махмараимова, *доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)*
Урал Холияров, *ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)*
Олмос Улвий Биннатова, *д.ф.н., профессор (Азербайджан)*
Карл Райхл, *д.ф.н., профессор (Германия)*
Вали Саваш Елок, *д.ф.н., профессор (Турция)*
Дорота Сильвия, *PhD, доцент (Польша)*
Муслихиддин Мухиддинов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Ибодулла Мирзаев, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Абди Маматов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Суюн Каримов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Мухаммадхон Хакимов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Нафас Шодмонов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Дилмурод Куронов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Мурадкасим Абдиев, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Бахтиёр Менглиев, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Нормат Юлдашев, *д.ф.н., доцент (Узбекистан)*
Абдулла Худайкулов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Бобоназар Муртазаев, *ф.ф.н., доцент (Узбекистан)*
Аскар Эшмуминов, *д.ф.н., доцент (Узбекистан)*
Обиджон Шофиев, *д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)*
Зафар Умуркулов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Нурали Амонтурдиев, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Хаким Ахмедов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Ахад Шукуров, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Эшназар Джаббаров, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Абдумурод Арслонов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Сирожиддин Турдимуродов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Умида Рахимова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Гульчехра Бегматова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Наргис Курбаназарова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Муяссар Холова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Шаира Амонтурдиева, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Шерзад Турдикулов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Зайнура Кадирова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Хумаюн Надим Мухаммад, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Дильрабо Эргашева, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President`s Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.12.2024
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94
Offset printing. Offset paper
Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155

Printed at the
«Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
www.philologicalresearch.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, *doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)*
Shohista Makhmaraimova, *doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)*
Ural Kholiyorov, *PhD, associate professor (Uzbekistan)*
Olmos Ulviy Binnatova, *doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)*
Karl Rayxl, *doct.of philol. sciences, professor (Germany)*
Vali Salvash Elok, *doct. of philol. sciences, professor (Turkey)*
Dorota Silvia, *PhD, associate professor (Poland)*
Muslihiddin Mukhiddinov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Ibodulla Mirzaev, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Abdi Mmatov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Suyun Karimov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Muhammadkhon Khakimov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Nafas Shodmonov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Dilmurod Kuronov, *doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Muradkasim Abdiyev, *doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Bakhtiyor Mengliev, *doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Normat Yuldashev, *doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)*
Abdulla Khudaykulov, *PhD (Uzbekistan)*
Bobonazar Murtazaev, *cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)*
Askar Eshmuminov, *doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)*
Obidjon Shofiev, *PhD, associate professor (Uzbekistan)*
Zafar Umurkulov, *PhD (Uzbekistan)*
Nurali Amonturdiev, *PhD (Uzbekistan)*
Hakim Akhmedov, *PhD (Uzbekistan)*
Ahad Shukurov, *PhD (Uzbekistan)*
Eshnazar Jabbarov, *PhD (Uzbekistan)*
Abdumurod Arslonov, *PhD (Uzbekistan)*
Sirojiddin Turdimurodov, *PhD (Uzbekistan)*
Umida Rakhimova, *PhD (Uzbekistan)*
Gulchekhra Begmatova, *PhD (Uzbekistan)*
Nargis Kurbanazarova, *PhD (Uzbekistan)*
Muyassar Kholova, *PhD (Uzbekistan)*
Shoira Omonturdiyeva, *PhD (Uzbekistan)*
Sherzod Turdikulov, *PhD (Uzbekistan)*
Zaynura Kadirova, *PhD (Uzbekistan)*
Humayun Nadim Muhammad, *PhD (Uzbekistan)*
Dilrabo Ergashova, *PhD (Uzbekistan)*

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

JO‘RAYEVA BIBISH MUXSINOVNA,
TO‘XTAYEVA DILAFRUZ ASHUROVNA
Ekspressivlik va intensivlik munosabati.....7

ЁҚУБОВ ШАРИФ
Дарбанд, Темир дарвоза, Оққўтал ва
“Темирдан ясалган дарвоза” атамалари таҳлили 11

SHUKUROV AHAD AHMADOVICH
Tarixiylikni ifodalovchi eskirgan so‘zlar 15

AMONTURDIYEV NURALI RASHIDOVICH
O‘zbek tili izohli lug‘atlarida etnografizmlar aksi 18

RAXIMOVA UMIDA DJUMAYEVNA
Hamid Olimjon ijodida so‘z sehri 23

TURDIQULOV SHERZOD DUMINOVCH
Onomastik ko‘lamda teotoponimlar tadqiqi.....26

ABDURAXMANOV SHAVKATJON ASHUROVICH
Funksional sintaksis haqida mulohazalar.....29

VAFOYEVA MUXAYYO YULDOSHEVNA
Sinonimlarda miqdor o‘zgarishlarining ayrim ko‘rinishlari xususida.....32

TUYCHIYEVA OYDIN SAYFULLAYEVNA
Fors tilida shart-istak mayli qo‘llanilishining o‘ziga xos xususiyatlari.....36

SHAYMARDANOVA AZIZA RAIMJANOVNA
Intralingval lakunalarning lisoniy tabiati 40

DUSNAZAROVA MAVJUDA ILYAMONOVNA
Nikoh marosimlarida milliy o‘zlikning aks etishi.....46

KADIROVA SAIDA MAXSUDOVNA
Badiiy tasvir va ifoda vositalarining adabiyotdagi roli 49

МУНДАРИЖА

TO‘YCHIYEVA ZULAYHO HAMROQO‘LOVNA
Islomiy paremalogik religionimlar 53

ABDUVALIYEVA KAMOLA SHAVKAT QIZI
“Shajarayi turk” asaridagi etnonimlarning hozirgi
O‘zbekiston hududida etnotoponim sifatida uchrashi 56

RAHMATULLOYEV AHTAM A’ZAM O‘G‘LI
Fors tilida otning semantik tasnifi 60

HAMDAMOVA NASIBA TO‘RABEKOVNA
Diniy leksikaning semantik xususiyatlari
(ekzotik leksika, frazeologizmlar, paremiologik birliklar misolida).....64

YO‘LDOSHEVA NARGIZA
“Alpomish” dostonida mavjud fonetik dialektizmlar.....68

ВАПАЕВА АНАХОН НАСУРИЛЛАЕВНА
Молодёжный сленг в вузах: дешифровка
(на примере студентов Университета Маъмуна) 71

ИСМАИЛОВА ФЕРУЗА ИСМАИЛОВНА
Народные пословицы в произведениях русских писателей.....75

OBLOQULOVA ZILOLA ULUG‘BEKOVNA
O‘zbek tilida taqinchoq nomlari semantikasi.....79

ADABIYOTSHUNOSLIK

КАДИРОВА ОЛИЯ ХАМЕДОВНА
Жанровое многообразие циклических произведений.....83

TA’LIM

XOJIYEVA IRODA ZOKIRJON QIZI
Ta’lim tojik tilida olib boriladigan umumta’lim maktablarda o‘zbek tili
(davlat tili) fanini o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari 90

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, та'lim. 2024; 12
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

TARIXIYLIKNI IFODALOVCHI ESKIRGAN SO'ZLAR

Shukurov Ahad Ahmadovich,
Termiz davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

"Til – millatning ko'zgusi", – deydilar"[2]. Bu ko'zgu-ning jilolari tildagi so'z va iboralarda o'z aksini topgan bo'ladi. Bunday lug'aviy birliklar orasida eskirgan so'zlar alohida ajralib turadi.

Eskirgan so'zlar tilning muayyan davrlari uchun xos bo'lib, asosan badiiy asarlarda ma'lum davrga xoslikni ifodalash maqsadida qo'llaniladi. Bu kabi so'zlardan yozuvchilar tarixiy voqea, hodisalarni real tasvirlash uchun, asarda tarixiylik rangi berish uchun foydalanadilar[3]. Tarixiylikni ifodalaovchi eskirgan so'zlar hozirda ham mavjud bo'lgan tushunchalarni, shunigdek, o'tmishdagi narsa tushunchalarni ifodalashiga ko'ra arxaik va tarixiy so'zlarga bo'linadi.

Eskirgan so'zlarning badiiy adabiyotdagi uslubiy vazifasi xilma-xildir. Eng avvalo, ulardan davrning tarixiy kolloritini yaratish uchun foydalaniladi. Bunday paytda eskirgan so'zlar nafaqat qahramonlar nutqida, balki muallif tilida ham faol qo'llanadi.

Eskirgan so'zlar ikkiga bo'linadi:

1. Arxaik so'zlar. Arxaizmlar ma'nosiga ko'ra leksik va semantik arxaizmlarga bo'linadi. Leksik arxaizmlar bugungi kunda sinonimi bilan almashgan so'zlardir. Tilda bugungi kunda ham mavjud, lekin qandaydir ma'nosi o'zgargan yoki boshqa so'zga almashgan so'zlar semantik arxaizmlar sirasiga kiradi[4]. Adabiy tilda eskirgan deb hisoblanuvchi vositalar lirik matnda ko'pincha "yuqori" yoki "nozik"ma'no kuchiga ega bo'lib, nutqiy matn qurilishida ekspressiv uslubiy vazifa bajaradi.

Bular bugungi kunda ham mavjud narsa va hodisalarning nomi sanaladi. Ularning o'rniga kelgan sinonimlar juda faol qo'llanadi.

Eskirgan so'zlarning katta qismini arxaizmlar tashkil qiladi. Ular she'riy matnda turli uslubiy vazifalarni bajarib keladi. Biz kuzatgan asarlarda *mag'rib, mashriq, hamd, sano, quvvai hofiza, solnoma, munajjim, hiroj, boj, harb, guftigu, foniy, ifsho, rud, mustahiq, mutaassir, hoziq, fath, etmoq, zabon, shoyon, bitik, g'azna, mirrix, zuhal, aso, shuaro, gaz (o'lchov birligi), qatli om, tug', yalov, harbu zarb, hok, mashvarat, nisba, samar, zahhob, zarrabin, mutasaddi, rasadxona, shatranj, ilik, ilmu nujum, ilmu she'r, ilmu tibilig, farmoni vojib, say'i ijtixor, fotih* va boshqa arxaizmlar uchraydi. Ularning ayrimlariga to'xtalib o'taylik.

Zahhob. Aslida, zahab. Arabchadan o'zlashgan so'z bo'lib, *oltin, tilla* ma'nosini beradi. So'zning *"zahob"* tarzida qo'llanishi, birinchidan, uni poetiklashtirgan, ikkinchidan, bezangan, yasangan degan ma'nolarni ifodalash imkonini bergan. Masalan: *Zahob to'tilar, tovuslar shohga yoqishini bilar edi...* ("Ming bir yog'du").

Samar. Arabchadan o'zlashgan so'z. Mumtoz adabiyotimizda, masalan, Alisher Navoiy asarlari tilida[5] *meva, foyda, natija, mashhur, tanilgan* kabi ma'nolarni ifodalagan.

Tarixiy mavzudagi she'riy dostonlarda ham uning *samarali natija,yakun, xulosa* ma'nolarida kelishi kuzatiladi. *Iskandar olimlarni ikki guruhga kor ilmi, osmon ilmi bilan shug'ullanuvchilarga bo'ldi, lekin ikkovidan bitta samar so'zladi* ("Ming bir yog'du").

Xok. Tuproq ma'nosidagi forschadan o'zlashgan so'z. Bu so'z mumtoz adabiyotimizda, xususan, Alisher Navoiy asarlari tilida keng qo'llangan va turli yasovchi qo'shimchalar olib, xilma-xil uslubiy ma'nolarni ifodalagan. *Xokbus, xokvash, xokdin, xokiy, xokirax, xokistar, xoknishin, xokro'b, xokisor, xokisud* va boshqalar shular jumlasidandir[6].

Hozirgi o'zbek she'riy dostonchiligida ham bu so'z poetik mazmun kasb etib, muhim uslubiy vazifa bajaradi. U ko'proq *hokipoy* (oyoq ostidagi tuproq) ma'nosini beradi. Masalan:

Sizning xokingizni surtib ko'zimga,
Sha'ningizga qo'ygum so'z ila haykal
("Afrosiyob").

Harb. Arabchadan o'zlashgan bu so'z *urush, jang* ma'nosini beradi. Dostonlarda bu so'z *qat'iy, ayovsiz, qirg'in, jang* ma'nosini ifodalashga xizmat qilgan.

[1] Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 5-том. – Б. 195.

[2] To'ra Sulaymon. Sensiz yolg'iz g'arib bo'ldim. – Toshkent: Movarounnahr nashriyoti. 2013. – B. 311.

[3] Mirzayev M., Usmonov S. Rasulov I. O'zbek tili – Toshkent: O'qituvchi, 1970, – 44 – bet.

[4] Kurbatov X.R. Tatarskaya lingvisticheskaya stilistika i poetika. – M.: Nauka,1978. – S 75

[5] Navoiy asarlari lug'ati, – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1972. – B. 544.

[6] Navoiy asarlari lug'ati, – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1972. – B. 658-659.

Masalan:

Kechga qadar zavol etdi harbu zarb (“Afrosiyob”).

Tug‘. Bu so‘z she’riy matnlarda bayroq ma’nosida keladi. Masalan:

Afrosiyob tug‘in ko‘targan Turon,
Davlatin so‘ndimi aks sadosi? (“Afrosiyob”).

Qatli om. Qirg‘in, yoppasiga o‘ldirish ma’nosini beradi. Masalan:

Hoshim bu qal’ada bo‘lsa gar shohid,
Qo‘shinin qilmoqchi edi qatli om. (“Afrosiyob”)

Bitik. Bu so‘z *yozuv* ma’nosini beradi. She’riy matnda u *qo‘lyozmalar, kitoblar* ma’nosida keladi. Masalan:

Uni ulug‘ bitiklarning zavoli urgay.
(“Hakim va ajal”)

Ushbu parchada *“zavoli urgay”* birikmasining tarkibidagi *“zavol”* arxaizmi ham poetiklashgan so‘zdir. Aslida, o‘zbek tilida *uvoli uradi*degan ibora bor. *“Uvol”* so‘zi arabcha *uvat* so‘zining o‘zlashgan shaklidir. Yuqoridagi parchada kelgan *“zavol”* so‘zi ham arabchadan o‘zlashgan bo‘lib, yo‘q bo‘lish, so‘nish, botish, pasayish kabi ma’nolarini beradi. Tilimizda *“zavol topmoq”* iborasi ham bo‘lib, *yo‘qolmoq, zarar ko‘rmoq* ma’nolarini beradi. Yuqoridagi misolda *“zavoli urgay”* iborasi okkozional ma’no hosil qilgan.

Hoziq. Arabchadan o‘zlashgan so‘z bo‘lib, *bilimdon, mohir, mahoratli, usta* ma’nolarini beradi.

Alisher Navoiyda *“Hoziq tabib”* birikmasi mavjud. “Hakim va ajal” dostonida *“Buxorolik hoziq hakim kelganmish deya”*degan misra bor. Bu yerda *“hoziq hakim”* birikmasi *nihoyatda bilimdon, tib ilmini yaxshi egallagan, qo‘li yengil tabib* ma’nosini beradi.

Mutaassir. Poetik yuqori uslubda qo‘llovchi bu so‘z ham arabchadan o‘zlashgan bo‘lib, ta’sirchanlik ma’nosini beradi. Masalan:

Bu tashrifdan mutaassir bo‘lib nihoyat,
Boshin egib turar edi bir chetda hakim.
(“Hakim va ajal”)

Mustahiq. Sazovorlik ma’nosida keladi. Masalan: *Jazoga men mustahiqman amringizga shay.* (“Hakim va ajal”)

Ifsho. Fosh etish, ochish, oshkora qilish ma’nosidagi so‘z. She’riy matnda u o‘ziga xos ta’sirchan poetik mazmun kasb etadi. Masalan: *Bu – Buxoro Malikasin yurak ifshosi*. (“Hakim va ajal”)

Hamdu sano. Arabcha *“hamd”* va *“sano”* so‘zlarining birikuvidan hosil bo‘lgan. *“Hamd va sano” “Xudo va payg‘ambar”* sha’niga aytilgan maqtovdir.

Mumtoz adabiyotda asarlar hamd va sano bilan boshlangan. Hozirgi paytda bu birikma umuman *maqtov, madhiya* ba’zan salbiy ma’nodagi maddohlik tushunchasini ifodalaydi.

Masalan:

Ular podshoga,
Yilda yigirma sakkiz bor.
Qaytarib aytilsa ham,
Eskirmaydigan hamdu sano,
Yozuv-yorliqlar,
Tayyor qilib qo‘yadilar.
(“Ming bir yog‘du”)

Arxaik so‘zlar qo‘llanilishi jihatidan an’anaviy bo‘lib, tarixiy so‘zlar esa muayyan tarixiy so‘z qo‘llanilgan davr aks ettirilayotgandagina qo‘llaniladi.

2. Tarixiy so‘zlar. Bular tarixda mavjud bo‘lib, endilikda yo‘q bo‘lib ketgan narsalar, voqea-hodisalar, tushunchalar va boshqalarning nomlaridir.

Tarixiy so‘zlar maxsus adabiyotlarda o‘tmish davrlardagi realiyalar nomi sifatida o‘ziga xos nominativ vazifa bajaradi. Shu bilan birga, ular o‘tmishni tasvirlashdagi imkoniyatlarining ko‘pligiga ko‘ra badiiy asar mualliflar e’tiborini o‘ziga jalb etadi. Shuningdek, eskirgan so‘zlar badiiy matnda kinoya qilish, kulgi qo‘zg‘atish maqsadlarida ham qo‘llanadi.

Tarixiy mavzudagi she’riy dostonlarda ularning yuqoridagi kabi xususiyatlari turli darajada yaqqol ko‘zga tashlanib turadi.

Avvalo shuni aytish kerakki, tarixiy mavzudagi asarlarda o‘tmish voqea-hodisalarining tasvirida aniqlik, tabiiylik, tarixiy haqiqatni ifodalash va uni haqqoniy yoritishda tarixiy so‘zlarning o‘z o‘rni bor. Ular tarixiy voqea-hodisa o‘tmish davrini tasvirlab berishning eng muhim lisoniy vositasidir. Tarixiy so‘zlarni ma’no anglatish jihatidan quyidagi turlarga bo‘lish mumkin:

1. Urug‘, qabila, elat va xalqlar nomini ifodalovchi, ya’ni antroponimik[1] tarixiy so‘zlar. Bunday so‘zlar o‘tmishda mavjud bo‘lgan urug‘, qabila, el-elatlarning nomlari bo‘lib, ularning xarakter-xususiyatlari, harakat, holat ko‘rinishlari, yashash, ishlash, kurash tarzlari haqidagi ma’lumotlarni ko‘rsatishga xizmat qiladi. Masalan:

Sug‘diylar qo‘lida yaraqladi tig‘,
Hayot – mamot jangi boshlandi, yo rab!
(“Afrosiyob”)

Hushyorlik – yurak alangasini zardushtiylar kabi asramak.
(“Ming bir yog‘du”).

Shak yurtiga nur sochsin quyosh.
Sug‘dlar bilan qondoshmiz azal. (“Shiroq”)

2. O‘tmishda mavjud bo‘lgan narsa, qurol-aslaha, buyum nomlari. Ular voqea-hodisalarni tarixiy jihatdan aniq ifodalashga xizmat qiladi. *Kamon, tig‘, nayza, qalqon, sipor, sovut, manjaniq, qilich nayza* shular jumlasidandir. Masalan:

Pahlavonlar nayza urishdi,
O‘tkir tig‘ni qaytarar sipar. (“Shiroq”)
Manjaniqlar jangga kirdi beomon,

[1] Nafasov T. O‘zbekiston toponimlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1988. – B.286.

Domiga tortmoqchi misli ajdarho. (“Afrosiyob”)

Ba’zan bunday so‘zlar ko‘chma ma’noda qo‘llanib, turli badiiy tasvir vositalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

a) o‘xshatish hosil qilishda qatnashadi: *Nayzadek sanchildi qalbimizda g‘am.* (“Afrosiyob”)

b) metafora hosil qiladi: *Islom qilichidan bo‘yalgan qonga.* (“Afrosiyob”)

v) sinekdoxa hosil qiladi: *So‘l qanotda uch yuzta tig‘, kamon.* (“Shiroq”)

g) mubolag‘ali tasvir yaratishda qo‘l keladi: *Yigitlarning qarashi keskir, Qaytaradi qilich damin ham.* (“Gumbazdagi nur”)

d) ba’zan so‘z ko‘chma ma’noda qo‘llanib, bir-biriga qiyoslangan tushunchalarni ifodalaydi: “*Hokim! Deya aytilgan chog‘, Aks sadoday yangraydi “qilich”.* (“Gumbazdagi nur”)

Bu yerda hukmronlikning jangu jadal, kuch bilan qo‘lga kiritilishi “hokim”, “qilich” so‘zlarining ko‘chma ma’nosi orqali ifoda topgan.

ye) ba’zan mualliflar so‘z yasash vositalardan foydalanib yangi so‘z hosil qiladi: *Kiygan ekan sovut, teri shim,*

Qonsiz emish tani, qattiq bez. (“Shiroq”)

3. O‘tmishda mavjud mansab, lavozimni bildiruvchi, ijtimoiy tabaqaga oid nomlar. Masalan: *amir, hokim, lashkar, xalifa, munajjim, shayx, shayxulislom, qozi, imom, kaniz, joriya, eshik og‘a, mirshab, vazir, sarkarda, nozir, umaro, mulozim, chopar, mirob, filbon, sarkor, sarbon, kamonchi, navkar, jig‘ador, nayzabardor, qalandar* va boshqalar.

4. Geografik o‘rin bilan bog‘liq eski nomlar: *muzofot, kent, viloyat* va boshqalar.

5. Joy, makon, boshpana, muassasa, dargohlarning eski nomlari: *qasr, qal’a, madrasa, taxt, ark, registon* va boshqalar.

Bunday nomlar matnda turli uslubiy ma’nolarda keladi. Masalan, *qal’a* so‘zi qatnashgan quyidagi ikki misraga e’tibor beraylik:

Lekin qal’amizni zabt etdi arab...
Chol bilan qal’ani etdim sayri bog‘,
Tanishday ko‘rindi menga odamlar. (“Afrosiyob”)

Birinchi misolda *qal’a* so‘zi himoya qo‘rg‘oni ma’nosida, ikkinchi misolda *qasr, hashamatli bino* ma’nosida kelib, o‘ziga xos uslubiy ma’no kasb etgan.

Quyidagi misolda qasrlar so‘zi *shahar, aholi yashash nuqtalari, obod yurtlar* ma’nosida kelgan:

Qasrlarni kul qilibdilar,
Yosh go‘daklar yurganmish daydib. (“Shiroq”)

Ba’zan bunday so‘zlar ko‘chma ma’noda qo‘llanib, tasviriy ifoda kasb etadi. Masalan:

Madrasalar mo‘ysafidsimon,
Ro‘paramda o‘qilar duo. (“Gumbazdagi nur”)

Bunday eski nomlar butunning qismini ham ifodalaydi va ular tasvirida aniqlik hosil qilishga xizmat etadi. Masalan, *qasr* va *qal’a* nomlarining uzvlari quyidagicha:

Oshyona. Bu nom izohli lug‘atda fors-tojikchadan o‘zlashgan kitobiy va eskirgan so‘z ekanligi qayd etilgan[1]. U *binoning yuqori qavati; yuqori qavatdagi xona* ma’nolarini beradi. “Hakim va ajal” dostonida “*Oshyonadan ko‘rinardi ravoqlar oliyi”* deyilgan. Bu yerda qasrning mahovatli va ko‘rkam ekanligi ifoda etilgan. *Toqi ravoq*. Aslida, *toqu ravoq*. “*O‘zganing toqu ravoqidan o‘zingning ayvoning yaxshi”*degan maqol ham bor. Bu har ikkala nom ham arabchadan o‘zlashgan so‘zlardir. *Toq*– binoning eshigi, darvoza tepasidagi yarim doira shaklida ishlangan qismni bildiradi. She’riyatda *gumbaz* ma’nosida ham keladi. *Ravoq* deb binoning old tomonidagi peshtoq va ustunlar bilan bezatilgan qismiga aytiladi. Shuningdek, nutqda *hashamatli bino; saroy, qasr* ma’nosida ham keladi. Yuqoridagi maqolda xuddi shu ma’noda qo‘llanilgan. “Hakim va ajal” dostonida *“Boqar edi oy tamg‘ali toqi ravoqqa”* deyilgan misra bor. Bu yerda salobatli binoning hashamatlari, ko‘rki nazarda tutilgan.

Xullas, tarixiy mavzudagi dostonlarda eskirgan so‘zlardan o‘rinli foydalanish quyidagilar uchun xizmat qiladi: 1. Tasvir qilinayotgan tarixiy voqelikni aniq va tiniq ko‘rsatib berishga yordamlashadi. 2. O‘quvchiga tarixning ma’lum bir davrida yashagan xalq vakillari tomonidan qo‘llangan asbob-uskunalar, jihozlar to‘g‘risida tasavvur hosil qilish imkonini beradi. 3. Asar mazmunini ochib berish, poetik rang-barranglikni ta’minlash vazifalarini bajaradi.

Rezyume. Ushbu maqolada tarixi mavzudagai o‘zbek she’riy do‘stonlarida tarixiylikni ifodalovchi eskirgan so‘zlarning nechoqlik ahmiyati, badiiy matn tahlili asosida misollar bilan yoritib berilgan.

Rezume: In this article, the significance of obsolete words expressing historicity in Uzbek poetic poems on the topic of history is highlighted with examples based on the analysis of the artistic text.

Резюме. В данной статье на примерах, основанных на анализе художественного текста, подчеркивается значение устаревших слов, выражающих историчность, в узбекских поэтических стихах на тему истории.